
Yer uchastkalarini noqonuniy olib qo`yganlik uchun yangi sanksiyalar joriy etildi

O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 14 yanvardagi «Yer uchastkalarini noqonuniy olib qo`yganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi O`RQ-667-sonli Qonun bilan MJtK, JK va JPKlarga o`zgartish va qo`shimchalar kiritildi

MJTK 200²-«Yer uchastkasini noqonuniy olib qo`yish» moddasi bilan to`ldirildi. Unda yer uchastkasini noqonuniy olib qo`yganlik uchun mansabdor shaxslarga 100 BHMdan 150 BHMgacha jarima solinishi nazarda tutilgan. Xuddi shunday huquqbuzarlik olib qo`yilayotgan yer uchastkasidagi binolarni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki dov-daraxtlarni yoxud ularning qismlarini, mazkur mol-mulkning bozor qiymati, shuningdek uning mulkdoriga bunday olib qo`yish munosabati bilan yetkazilgan zararining o`rni oldindan va to`liq qoplanmagan holda buzib tashlashga, ularga ko`p bo`lmagan miqdorda zarar yetkazilishiga olib kelsa, mansabdor shaxslarga 150 BHMdan 200 BHMgacha miqdorda jarima solishga sabab bo`ladi. Ko`p bo`lmagan miqdor deganda 30 BHMdan 100 BHMgacha bo`lgan doiradagi miqdor tushuniladi.

Bunda MJTKdan 241¹¹-«Ko`chmas mulkni buzish tartibining buzilishi» moddasi chiqarib tashlandi.

Endi MJTKning 200²-moddasida nazarda tutilgan ma`muriy huquqbuzarliklar to`g`risidagi ishlar ma`muriy sudlar tomonidan ko`riladi.

JKning 229⁵-«Yer uchastkasini noqonuniy olib qo`yish» moddasi bilan to`ldirildi. Ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq yer uchastkasini noqonuniy olib qo`yish shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo`llanilganidan keyin sodir etilgan bo`lsa, 200 BHMdan 250 BHMgacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida javobgarlikni kuchaytiruvchi holatlar ko`rsatilgan. Bular - yer uchastkasining olib qo`yilishi olib qo`yilayotgan yer uchastkasidagi binolarni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki dov-daraxtlarni yoxud ularning qismlarini, mazkur mol-mulkning bozor qiymati, shuningdek uning mulkdoriga bunday olib qo`yish munosabati bilan yetkazilgan zararining o`rni oldindan va to`liq qoplanmagan holda buzib tashlashga sabab bo`lgan holatlar. Shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo`llanilganidan keyin yoki ancha miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilganda quyidagi sanksiyalar qo`llaniladi:

250 BHMdan 300 BHMgacha miqdorda jarima;

yoki 360 soatdan 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari;

yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari;

yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash;

yoki muayyan huquqdan mahrum etib 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.

Ushbu moddaning uchinchi qismida xuddi shunday harakatlar ko`p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilganda, 300 BHMdan 500 BHMgacha miqdorda jarima yoki 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud muayyan huquqdan mahrum qilib 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi nazarda tutilgan.

Ushbu moddaning to`rtinchi qismiga muvofiq xuddi shunday harakatlar ko`pchilik uchun xavfli bo`lgan usulda yoki juda ko`p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo`lsa, muayyan huquqdan mahrum etib 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

JPKning 345-moddasi ikkinchi qismiga 229⁵-modda kiritildi. Endi yer uchastkasini noqonuniy olib qo`yish bilan bog`liq jinoiy ishlar bo`yicha ham majburiy tartibda dastlabki tergov o`tkaziladi.

2021-02-22 11:21:36